



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

XITOVSHUNOSLIK FAKULTETI

XITOV FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**Xitoyshunoslik fakulteti “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari
iqtidorli yoshlar ilmiy-amaliy konferensiyasi”ning
AXBOROT XATI**

Xitoyshunoslik fakulteti tomonidan 2024-yil 15-aprel kuni an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani o‘tkaziladi.

Anjuman maqsadi va vazifalari:

Xitoyshunoslikning filologiya, metodika, falsafa, tarix, iqtisodiyot, sosiolingvistik, lingvomadaniy, tarjimashunoslik bo‘yicha ilmiy muammolar yuzasidan fikr almashish; O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish; O‘zbekiston va Xitoy aloqalarining ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy o‘rganish va amaliy takliflar ishlab chiqish; Xitoyshunoslikda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish; Yosh olimlarning malakasini oshirish; Xitoyshunoslikning dolzarb masalalariga oid hamkorlikda amalga oshiriladigan ilmiy mavzular aniqlab, xalqarot miqyosdagi yangi ilmiy loyihalar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish; O‘zbekiston va Xitoy fan va ta‘lim tizimidagi ilg‘or tajribalar, innovatsiyalar bo‘yicha yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lish.

Anjuman quyidagi sho‘balarda ish yuritadi:

1. Filologiya va metodika.
2. Tarix, falsafa, matnshunoslik va manbashunoslik.
3. Ta‘lim va madaniyat.
4. Iqtisodiyot.

Anjuman materiallari quyidagi mavzularni qamrab oladi:

- Hozirgi xitoy tili va tilshunosligiga oid ilmiy va amaliy masalalar;

- Xitoy tilini o‘qitishning zamonaviy metodikalari;
- Lingvomadaniy va sosiolingvistik aspektlar tadqiqi bugungi holati va istiqboli;
- Globalizasiya sharoitida xitoy tilini o‘rganish hamda tadqiq etish yo‘nalishlari;
- O‘zbekiston Respublikasi va XXR o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlikning bugungi holati va istiqboli;
- O‘zbekiston-Xitoy savdo va iqtisodiy aloqalari: tajriba va muammolar;
- Xitoy investisiyalarini O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish masalalari: loyihalar, muammolar, rejalar;
- Markaziy Osiyo xalqlari tarixining xitoy manbalari asosida yoritilishi;
- Konfusiy ta’limoti va hozirgi zamon;
- Xitoy falsafasi masalalari
- O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini xitoy tiliga va Xitoy mumtoz adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga tarjima masalalari;
- Xitoydagi iqtisodiy jarayonlarning xalqaro, shu jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga ta’siri;
- O‘zbekiston va Xitoy madaniy va gumanitar sohalardagi hamkorligi masalalari.

Anjuman materiallari alohida to‘plamda chop etiladi.

Materiallar ilmiy maqolalar shaklida o‘zbek, rus, ingliz, xitoy tillarida, qog‘oz va elektron nusxalarda (Times New Roman shrifti, 14 kegel, 1,5 intervalda 5-10 bet) topshiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilmiy adabiyotlardan havola(snoska)lar har bir sahifa ostida bo‘lishi kerak.

Maqolalarni qabul qilish muddati – **2024 yil 10 aprelgacha.**

Mualliflardan konferensiyada ishtirok etish va maqola nashri uchun haq olinmaydi.

Maqola matnini quyidagi manzilga yetkazishingizni so‘raymiz: 100060.

Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy, TDSHU Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrası

Tel.: +998909293940 Badalbaev Dilshod, **elektron pochta: dilixiade@gmail.com**

Telegram: +998909293940 (@dilixiade)

